

**2025-yil davomida Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan ma'sul vazirlik
va idoralar bilan birgalikda oilalarni va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash borasida
amalga oshirilgan ishlar
to'g'risida**

Sohaga doir **17 ta** normativ-huquqiy hujjat (**1 ta** Qonun, **1 ta** Senat qarori, Prezidentning **2 ta** Farmoni, **3 ta** Qarori, **9 ta** Hukumat qarori) qabul qilindi.

I. Xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, biznesini va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, oilalar daromadini oshirish maqsadida olib borilgan tizimli ishlar natijasida **2025-yilda 2,3 mln nafar** (**2025-yil reja – 2 mln nafar**) xotin-qizlarni **daromadli mehnat** bilan ta'minlashga ko'maklashildi va **2024-yilga** nisbatan **2,4 baravarga** ortdi. **Shundan, 735,7 ming nafar** xotin-qizlar bo'sh ish o'rinlariga ishga joylashtirildi.

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan 95 170 nafar, tijorat banklari tomonidan 1 341 603 nafar, O'zbekiston fermerlari kengashi tomonidan 829 620 nafar, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan 68 681 nafar.

334 ming nafar xotin-qizlar kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitildi (**2025-yil reja – 250 ming nafar**).

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 15 772 nafar, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan 184 208 nafar, Savdo-sanoat palatasi tomonidan 30 800 nafar;

Jumladan, Qo'mita tomonidan **"Sayxunobod tajribasi"** asosida hududiy Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari orqali **103 574 nafar** xotin-qizlar o'quvlarga jalb etildi. Ulardan o'quv kurslarini yakunlagan **96 752 nafar** xotin-qizlarga sertifikatlar topshirildi va shundan **71 049 nafarining** bandligi ta'minlandi.

16 705 nafari tikuvchilik, 7 025 nafari issiqxona, 5 899 nafari gulchilik, 5 391 nafari IT, 5 203 nafari tomorqachilik, 4 214 nafari pazandachilik, 3 774 nafari asalarichilik, 3 765 nafari qandolatchilik, 2 618 nafari chorvachilik, 1 884 nafari parrandachilik va boshqa yo'nalishlarda.

"Bir million dasturchi" loyihasi doirasida **187 ming nafar** xotin-qizlar axborot texnologiyalari bo'yicha o'qitildi.

O'rmon xo'jaliklari bilan birgalikda gul, limon, daraxt ko'chatlari yetishtiruvchi, ko'chat payvandlovchi, dorivor g'iyohlar yetishtirish bo'yicha **14 312 nafar** ayollar o'qitilib, tadbirkorligi yo'lga qo'yildi.

Xonadonida pilla yetishtirish imkoniyati bo'lmagan ayollarning bandligini ta'minlash maqsadida **1 003 ta** markazlashtirilgan qurtxonalar faoliyati yo'lga qo'yildi. **551 204 nafar** xotin-qizlar pillachilik sohasida qisqa muddatli o'quv kurslarda o'qitildi, **769 040 nafari** pillachilikka jalb qilindi.

Toshkent viloyatining **Chinoz** tumanida **Vyetnam, Xitoy** tajribasi bo'yicha "Ipak qurtini uch yoshgacha boqib tarqatishning afzalliklari" mavzusidagi **ilmiy-amaliy seminar** o'tkazildi. Tumanda **3 000 qutidan** ziyod pilla parvarish qilinib, **180 tonnadan** ortiq pilla yetishtirildi.

Xorazm viloyatida xotin-qizlar ishsizligidan holi hududga aylantirish bo'yicha Bog'ot tumani tajribasini ommalashtirish maqsadida **"Jamiyat barqarorligini ta'minlashning yangicha yondashuvida hamkorlikdagi vazifalar"** mavzusida respublika o'quv-amaliy seminari tashkil etildi.

Respublika bo'yicha **28 ta** tumanni xotin-qizlar ishsizligidan holi hududga aylantirish belgilab olindi va yo'l xaritalari ishlab chiqildi.

Bog'ot tajribasi asosida ishsiz va norasmiy band bo'lgan xotin-qizlarning bandligini ta'minlash hamda norasmiy faoliyatini rasmiylashtirish borasida **"uch tomonlama shartnoma"**lar imzolanishi yo'lga qo'yilib, barcha tuman (shahar)larga joriy etildi.

Savdo-sanoat palatasi, Markaziy bank, Davlat aktivlarini birgalikda **"Ayollar korporativ forumi"** konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Xonadonlarda **4 231 ta** kichik ishlab chiqarish sexlari tashkil etildi.

140 ta Hunarmandchilik sanoat markazlari tashkil etildi.

1 160 ta mahallada **Xotin-qizlar bandligini ta'minlash va salomatligini mustahkamlash markazlari** ishga tushirildi. Markazlar faoliyatini yangicha yondashuvlar asosida tashkil etish yuzasidan takliflar ishlab chiqildi. Takliflar inobatga olindi va **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 3 dekabr kuni PF-240-son Farmoni** qabul qilindi.

Ijrosini to'liq hajmda bajarilishini ta'minlash maqsadida ish tashkil etilmoqda.

Hududlarga tashriflar davomida **632 nafar** ayollar rahbarlik qilayotgan **tadbirkorlik subyektlari vakillari bilan muloqot uchrashuvlari** tashkil etildi. **187 nafar**ining muammolari batafsil o'rganib chiqilib, **108 nafar**ining muammolari joyning o'zida ijobiy hal etildi.

"INNOWOMENWEEK-2025" haftaligi doirasida Toshkent shahridagi "Central Asian Expo Uzbekistan" (CAEx) ko'rgazmalar markazida **"Ixtirochi ayollar – 2025"** ko'rgazmasida "Intellectual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish" mavzusida o'quv-seminari hamda ixtirochi va tadbirkorlar ayollar uchun kreativlik darslari tashkil etildi.

Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasida **"Ayol, biznes, innovatsiya"** mavzusida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha o'quv seminari tashkil etildi. Unda respublika hududlaridan **140 nafar** lider tadbirkorlar ishtirok etib, sertifikatlariga ega bo'ldi.

2026 yilda:

O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi markaziy apparati tuzilmasida xotin-qizlarning salohiyatini rivojlantirish, liderlik, innovatsion va raqamli ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida **"Ayollar salohiyatini rivojlantirish" loyihalar markazini** tashkil etish;

xonadonlarda asalarichilik, hunarmandchilik, parrandachilik, tomorqachilik, kasanachilik yo'nalishlari bo'yicha **"Daromadli ayol"** kooperatsiyalar dasturini joriy qilish;

lider tadbirkor ayollarga qariyb **49,1 ming nafar** ehtiyojmand xotin-qizlarni birlashtirish, "Usta-shogird" an'anasi asosida **6 380 nafar** xotin-qizlarni hunarmandlarga birlashtirish orqali daromad topish va o'z daromadini oshirish ko'nikmalariga o'rgatish;

166 874 nafar xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish ishlarini tashkil etish;

1 149 ta mahallada xotin-qizlar bandligini ta'minlash va salomatligini mustahkamlash markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish;

ipak qurti parvarishi sohasida **361 632 nafar** xotin-qizlar bandligini ta'minlash;

Xotin-qizlarni barqaror bandligini ta'minlash maqsadida **"Bilim – amaliyot – biznes"** modeli asosida faoliyat yuritadigan innovatsion o'quv-amaliy ishlab chiqarish komplekslarini joriy etish.

Milliy merosni asrash, kashtachilik sohasida xotin-qizlarni xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etishiga ko'maklashish maqsadida **"Ipak-kashta jilosi"** respublika festivalini tashkil qilish rejalashtirilmoqda.

II. Sog'lom oila tartiblarini joriy etish bo'yicha:

Qo'mita tomonidan aholi reproduktiv salomatligini muhofaza qilish, xotin-qizlar o'rtasida sog'lom hayot tamoyillarini targ'ib etish maqsadida Sog'liqni saqlash hamda Sport vazirliklari bilan hamkorlik dasturlari qabul qilindi.

Tibbiyotning birlamchi bo'g'inlarida **2 255 ta** **"Sog'lom oila maslahatxonalari"**da ginekolog, urolog va boshqa mutaxassislar tomonidan tegishli tibbiy xizmatlar ko'rsatib kelinmoqda.

"Yaqin qarindoshlar o'rtasidagi va erta nikohlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish borasidagi ishlarni tizimli tashkil etish to'g'risida"gi chora-tadbirlar rejasi asosida tashkil etilgan **35 mingdan** ortiq davra suhbatlarida **215 092 nafar** ishtirokchilar jalb qilindi.

Qo'mita qoshidagi Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan "Erta va yaqin qarindoshlar o'rtasida nikohga qarshi birga kurashamiz", "Sog'lom oila - kelajak poydevori" nomli ilmiy-metodik qo'llanmalar, "Oilada o'zaro ishonch va hurmatni saqlaylik", "Baxtli oila sirlari", "Sog'lom oilaviy munosabatlar", "Oilaviy munosabatlarni mustahkamlovchi qadriyatlar" kabi **14 ming nusxadan** ortiq bukletlar mahalladagi xotin-qizlar faollariga yetkazildi.

Shuningdek, institut tomonidan ishlab chiqilgan **3 ta** ijtimoiy videorolik, **7 ta** turdagi targ'ibot taqdimot materiallari va qo'llanmalar Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, **9 turdagi** qo'llanmalar mahallalardagi Ota-onalar universitetlari, **7 turdagi** targ'ibot materiallari Oila va xotin-qizlar maskanlariga foydalanish uchun yuborildi.

Reproduktiv maslahat va jamoatchilik ko'magiga muhtoj oilalar bilan olib borilgan **profilaktik tushuntirish ishlari natijasida,** erta va qarindoshlar o'rtasida nikohni rejalashtirgan oilalarda aniqlangan **1 350 ta** muammolardan **498 ta** salbiy holatlar oldi olindi. **323 694 nafarining** sog'lom turmush tarziga rioya etish to'g'risidagi fikrlari o'zgardi.

“Qizlar tarbiyasi – millat tarbiyachisi”, “Ayol-qadriyatlar davomchisi”, “Davraga kel, dugonajon” ma'rifiy tadbirlarda **360 mingdan ortiq** iqtidorli, faol qizlar, jumladan, profilaktika hisobiga tushib qolgan qizlar ishtirok etdi. Ular bilan motivatsion seminar, davra suhbatlari tashkil etildi.

Qizlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish maqsadida respublika bo'ylab **454 marotaba “Sog'lom turmush tarzi tarafdorimiz”** shiori ostida o'tkazilgan uchrashuvlar, davra-suhbatlari hamda sport musobaqalarida **26 ming nafar** qizlar jalb etildi.

Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti bilan birgalikda yosh oilalarda milliy qadriyatlarga asoslangan farovon va barqaror oilalarni shakllantirishga qaratilgan **“Mas'uliyatli ota-onalik”** loyihasi joriy etildi.

Shu nomda **10 000 nusxada** o'quv qo'llanma tayyorlanib, mas'ullarga yetkazildi. **“Mas'uliyatli ota-onalik”** loyihasi doirasidagi amaliy mashg'ulotlar uchun ish daftari, **“Yosh ota-onalar uchun farzand daftari”** ishlab chiqildi.

Hududlarda o'tkazilgan **ikki kunlik** seminar-treninglarda trenerlar tayyorlandi. Ota-onalarning mas'uliyatini oshirishga qaratilgan **8 ta** videodars, **1 ta** ijtimoiy rolik, **3 ta** video rils, **22 ta** targ'ibot materiallari yaratildi.

Mahalla xotin-qizlar faollari uchun **“Mas'uliyatli ota-onalik”** o'quv dasturi va o'quv-uslubiy majmuasi ishlab chiqildi, unga mas'uliyatli ota-onalik mezonlari bo'yicha ma'ruza matnlari, taqdimotlar, keyslar, topshiriqlar, testlar jamlandi.

“Mas'uliyatli ota-onalik” veb-sayti (<https://masuliyatli-ota-onalik.uz/>) va mobil ilovasi yaratildi. **5 moduldan** iborat onlayn o'quv kurslari joriy etildi.

Oilalarda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish maqsadida mahallalarda o'tkazilgan sport tadbirlarida **4 mln. nafardan** ortiq xotin-qizlar ishtirok etdi.

“Gimnastika barcha uchun!” shiori ostida Prezident Kubogi sport musobaqasining Respublika bosqichi o'tkazildi. Unda musobaqaning hududiy bosqichlarida g'olib bo'lgan **36 ta jamoa**, vazirlik va idoralar vakillaridan iborat **800 nafardan** ziyod xotin-qizlar ishtirok etdilar.

Onkologik kasalliklarni erta aniqlashni tashkil etish borasida **3,89 mln nafar** ayollar onkoskrining tekshiruvidan o'tkazildi, **3 323 nafari** mutaxassis tekshiruviga yuborildi. **Natijada, 2 589 nafarida** kasallik erta bosqichda aniqlandi. **3 245 nafari** sog'lomlashtirishga jalb etildi.

Jizzax shahridagi "Oila va xotin-qizlar maskani"da tarbiyasida o'zgarish bo'lgan o'quvchi qizlar va ularning onalari uchun **"Onalarga aytar so'zim bor"** mavzusida psixologik trening tashkil qilindi.

Qo'mita tashabbusi bilan quyidagi loyihalar ham ilgari surildi:

1. Qizlar o'rtasida turli salbiy holatlarning, xususan erta nikoh, erta tug'ruq va boshqa holatlarning oldini olish, ular bilan salomatlik Ta'lim muassasalarida **"Tengdosh-tengdoshga"** tamoyili asosida **"Salomatlik volontyorlari"** faoliyatini yo'lga qo'yish orqali **"Salomatlik sari harakat"** tadbirlari amalga oshirilmoqda. Bunda Toshkent shahrining Yashnobod tumanidagi **244-maktabda pilot loyiha** amaliyotga joriy qilindi.

Loyiha ijobiy tajribalari asosida respublikaning **14 ta** hududida **1 tadan** maktabda yo'lga qo'yildi.

2. **Qo'mita tomonidan xonadonlarda** tabiiy resurslardan samarali foydalanadigan, sog'lom turmush tarziga ega, ekologik mas'uliyatli, iqtisodiy barqaror, ma'naviy yuksak oilalarni shakllantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan **"Yashil Oila"** loyihasi ishlab chiqildi. Loyihaning amalga oshirilishi **bir yilda 100 ming ta** oila ekofaol oilaga aylantirish ko'zda tutilgan.

3. BMTning Aholishunoslik jamg'armasi bilan hamkorlikda mahallalarda **"Sog'lom ayol"** markazlarini tashkil etish orqali nutritsiolog, reproduktolog, psixologlar xizmatlarini joriy qilish borasida loyiha ishlab chiqildi.

2026 yilda:

1. Qizlarda maktabgacha ta'lim muassasasi yoshidan **reproduktiv madaniyat va salomatlik tushunchalarini** shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqish.

2. **10 600 ta** umumta'lim maktabi va **500 dan ortiq** professional ta'lim muassasalaridagi qizlar o'rtasida **"Salomatlik volontyorlari"** faoliyatini tashkil etish;

3. Mahallalarda sog'lom ovqatlanish, oila sport – jismoniy faollikni sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yish bo'yicha **"Sog'lom hayot"** loyihasini amalga oshirish;

4. Tibbiy ko'makka muhtoj bo'lgan **55 296 nafar** ayollar bilan **"Sog'lom oila"** – ishlash tartibi bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

5. Xotin-qizlar o'rtasida onkologik kasalliklarni erta aniqlash bo'yicha **2 mln. nafar** ayollarni **skrining tekshiruvlardan** o'tish targ'ib qilish.

6. **4 mln nafardan** ortiq xotin-qizlarni sport tadbirlariga jalb etish

7. Respublika **Ayollar sport olimpiadasini** tashkil etish belgilab olindi.

III. Oilalarni mustahkamlash bo'yicha:

Oilaga yaxlit huquqiy, psixologik, mediativ xizmatlar ko'rsatish, oila mustahkamligining ilmiy asoslarini yaratish, ota-onalik ta'lim dasturlarini joriy etish, nikohlanuvchi yoshlarni oilaviy hayot saboqlariga o'qitish, nizoli, notinch oilalarga, ruhiy tushkunlikdagi ayollarga psixologik maslahat berish, daromad topishga o'rgatish, sog'lom oila tamoyillarini singdirish, oilaviy ta'lim hamda oilaviy maslahat xizmatlarini amalga oshirish maqsadida Respublikadagi **206 ta** tuman va shaharlarda **"Oila va xotin-qizlar maskanlari"** tashkil etildi.

Namangan viloyati Namangan shahrida ochilgan maskan BMTning Aholishunoslik jamg'armasi tomonidan to'liq jihozlandi. **2026 yilda** mazkur maskanlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash ishlari yirik loyihada amalga oshiriladi.

Maskanlar faoliyatiga **1 083 nafar** mutaxassislar jalb qilindi. Ularda **168 445 nafar** nikohlanuvchilar, **29 780 ta** notinch va nizoli oilalar, **39 985 ta** yosh oilalar ota-onalik dasturiga hamda **35 937 nafar** xotin-qizlar tadbirkorlik va daromad topishga o'qitildi.

52 536 nafar xotin-qizlarga psixologik, **41 963 nafariga** huquqiy yordamlar ko'rsatildi. **44 740 ta** oilada tibbiy va sog'lom turmush tarzi targ'iboti olib borildi. **11 252 ta** nizoli oilalarga mediativ, metodik, konsultativ va amaliy yordamlar ko'rsatildi. **26 411 nafar** xotin-qizlar fitnes va raqs guruhlariga jalb etildi. Zo'ravonlikka moyil **6 906 nafar** shaxslar tuzatish dasturidan o'kazildi.

Maskanlar faoliyatining qonuniy asoslarini mustahkamlash maqsadida Hukumat qarori loyihasi tayyorlandi va belgilangan tartibda yuqori instansiyalarda ko'rib chiqilmoqda.

Xalqaro Oila kuni munosabati bilan **"Farovon oila sari"** oyligi e'lon qilindi.

"Yangi O'zbekistonning ibratli harbiy oilasi" ko'rik-tanlovi, **"Ibratli oila"** ko'krak nishoni bilan taqdirlash uchun nomzod oilalarni saralash tadbirlari **natijasida** ibratli oilalarning soni **160 mingdan** ortdi.

2 000 ta oila **"Ibratli oila"** ko'krak nishoni bilan taqdirlandi va o'tgan yilga nisbatan **9,6 baravarga** ortdi. Bugungi kunda ular oilalardagi nizolarning oldini olishda faol ko'mak berib kelmoqda.

Sentyabr oyida **"Qaynonam – onam mening, kelinim – bolam mening"** oyligi, **"Dolzarb 10 kunlik – yuzma-yuz muloqot"** tadbirlarida qaynona va kelinlar uchun tashkil etilgan **5 153 ta** o'quvlarda **60 852 nafar** qaynona-kelinlar ishtirok etdi.

"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida bahor mavsumida **156 482 tup** manzarali va mevali ko'chatlar ekildi. Hududlarda **100 dan ortiq "Oila bog'lari"** tashkil etildi.

“Baxtiyor oila”, “Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash”, “Oila o‘quv”. “Gender tadqiqotlar” elektron platformalari ishga tushirilib, oilaviy munosabatlarga doir ma’lumotlarni tahlil qilib imkoniyati yaratildi.

Oilani qo‘llab-quvvatlash borasidagi qonuniy asoslarni yanada mustahkamlash maqsadida **“Farovon oila-2030”** milliy dasturi loyihasi ishlab chiqildi.

Unda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirishlar **(15 ta)** kiritish orqali oila farovonligiga xizmat qiladigan huquqiy asoslarni yanada mustahkamlash;

30 ta maqsadli ko‘rsatkichlar va **8 ta** bo‘limdagi **69 ta** band chora-tadbirlarini amalga oshirish **ko‘zda tutilgan**.

Oilaviy nizolar, tazyiq va zo‘ravonliklar, qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlar, erta va havfli tug‘ruqlar, to‘y va marosimlarni dabdabali o‘tkazishning oldini olish borasidagi holatlar Qo‘mita ma’sullari tomonidan joylarda o‘rganib borildi. **Har oyda tanqidiy tahlil etilib**, kerakli vazifalar belgilandi.

Amalga oshirilgan **natijasida** nikohni qonuniy rasmiylashtirmasdan yashayotgan **15 141 ta** oilaning **11 579 tasining (76,4 foizi)** rasmiylashtirildi.

37 817 ta oilaviy ajrim yoqasidagi oilalardan **32 507 tasining** ajralib ketishini va **46 mingdan ortiq** voyaga yetmagan bolalarning noto‘liq oila farzandi bo‘lib qolishining oldi olindi.

2026 yilda:

1. Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, sohani yanada takomillashtirish borasida normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

2. **“Farovon oila-sog‘lom jamiyat”, “Nikoh shartnomasining afzalliklari va ahamiyati”, “Oilada mas’uliyat va majburiyat”, “Oila ulug‘-nikoh muqaddas”** mavzularida **mahallalarda**, mehnat jamoalarida **110 mingtadan ortiq** targ‘ibot tadbirlarini tashkil etish;

3. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bo‘yicha o‘quv kurslari bilan qamrab olish darajasini **50 foizga** yetkazish;

4. Nizoni barvaqt aniqlash, notinch, nizoli, oilaviy ajrim yoqasidagi oilalarni yarashtirish;

5. Oilalarga yaxlit xizmat ko‘rsatish maqsadida **Oila va xotin-qizlar maskanlarida oilaviy ta’lim dasturlari** hamda **oilaviy maslahat tizimi** (psixologik, huquqiy, tibbiy, mediativ, mentorlik xizmatlari v.h.) orqali aholiga ko‘rsatilgan xizmatlar sonini **40 foizga** yetkazish;

6. **15 may** – Xalqaro oila kuni munosabati bilan **“Farovon oila sari”** oyligi tadbirlarini yuqori saviyada tashkil etish;

7. Har bir mahalladan **15-20 tadan** oila bilan ibratli oila mezonlari asosida rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

8. **2 000 ta** oilani **“Ibratli oila”** ko‘krak nishoni bilan taqdirlash amalga oshiriladi.

IV. Xotin-qizlar o‘rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olish, tazyiq va zo‘ravonlikka murosasiz muhitni yaratish bo‘yicha “Jinoyatsiz hayot” loyihasini tatbiq etish maqsadida muayyan ishlar amalga oshirildi.

Xotin-qizlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash, oilani mustahkamlash borasida xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarini oldini olish bo‘yicha **416 ta** taqdimnoma kiritildi, **326 tasiga** ta‘sir choralari ko‘rildi.

Sudlarga kiritilgan **737 ta** da‘vo arizalarining **683 tasiga** asosan sud qarorlari qabul qilindi.

Sudlarda nizolashayotgan **39 410 ta** oilalar yarashtirildi. Nizoli va ajrim yoqasidagi oilalarga “tarbiyachi - ma‘naviy homiy”lar biriktirish tizimi yo‘lga qo‘yildi. **37368 nafar** xotin-qizlar profilaktik hisobdan chiqarildi. Xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik sodir etgan **9237 nafar** shaxslar tuzatish dasturidan o‘tishga yo‘naltirildi.

Jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan **841 nafar**, muqaddam sudlangan **1832 nafar**, probatsiya hisobida turgan **8 830 nafar**, migratsiyadagi **270 ming nafardan ortiq** xotin-qizlar va ularning oilalariga zarur yordam va xizmatlar ko‘rsatildi.

“Ye”-Ijtimoiy profilaktika axborot tizimi doirasida **215 896 nafar** ayollarga ijobiy yakuniy xulosalar berildi.

Ayollar o‘rtasida jinoyatchilikni keskin qisqartirish bo‘yicha **“Farg‘ona tajribasi”**, Xo‘jayli va Jarqo‘rg‘on tumanlari, Chimboy tumaning **“Tazg‘ara”** mahallasi tajribasi yaratildi. Natijada **“Xavfsiz oila”** tamoyili asosida alohida ish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

“Xavfsiz oila” moduli orqali oila-turmush doirasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish maqsadida sudlarda nizolashayotgan **70 390 ta** nizoli oilalarning **68 507 tasi** o‘rganildi va **39 410 tasida** nizolar sudgacha hal etildi.

“Oqila ayollar” harakati a‘zolari va boshqa ijtimoiy faol ayollardan iborat **181 505 nafar** **“tarbiyachi-ma‘naviy homiy”lar** **11 065 ta** oilalardagi turli ijtimoiy maishiy muammolar hal etishda, **2 951 nafar** xotin-qizlarning ijtimoiylashuviga, **3248 nafar** tarbiyaga muxtoj qizlarning dunyoqarashi o‘zgarishida ko‘maklashdi.

Xotin-qizlarni va bolalarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan olib borilayotgan targ‘ibot-tushuntirish va amaliy ishlar yanada kengaytirildi.

“Istiqbolli avlod”, “Ilm nur markazi” nodavlat notijorat tashkiloti hamda O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar Palatasi o‘rtasida o‘zaro hamkorlik to‘g‘risidagi **Memorandumlar** tuzildi.

25 noyabr-10 dekabr kunlari **“Ayollar va qizlarga nisbatan raqamli zo‘ravonliklarga barham berish uchun birlashaylik”** mavzusida targ‘ibot tadbirlari doirasida **27 308 ta** targ‘ibot tadbirlari tashkil etildi.

Xorijga ketgan va farzandlarini nazoratsiz qoldirgan xotin-qizlarni aniqlash hamda ularni Vatanga qaytarish bo‘yicha Chirchiq shahri **“Navbahor”** mahallasida **tajriba** yaratildi.

Natijada, onlayn muloqot orqali **270 mingdan ortiq** migratsiyadagi xotin-qizlarning oilalari manzilli o‘rganildi.

Onlayn muloqotlar orqali xorijda kam daromad bilan qiynalib yurgan **230 mingdan ortiq** ayollar vatanga qaytarildi va reintegratsiya dasturlari amalga oshirildi.

56 788 nafar xotin-qizlarning oilalariga huquqiy, **36 597 nafariga** psixologik yordamlar, **141 321 nafariga** moddiy yordamlar, **62 749 nafarining** oilalariga tibbiy yordamlar ko‘rsatildi.

15 274 nafar ayollarning oilalaridagi farzandlari turli to‘garaklarga jalb qilindi, **407 nafar** ayollarning oilalariga subsidiyalar, **2 596 nafar** ayollarning oilalari imtiyozli kreditlar ajratildi, **19 410 nafar** ayollarning ishsiz oila a‘zolari ishga joylashtirildi.

Xotin-qizlar tomonidan oldi olinishi mumkin bo‘lgan jinoyatlar **14,2 foizga (4167/3575)**, shaxsga qarshi qaratilgan jinoyatlardan xotin-qizlarning **jabrlanishi 9,8 foizga (2797/2746)**, **jinoyat sodir etgan ayollar 11,7 foizga (3 821/3373) kamaydi.**

2026 yilda:

1. Oila va xotin-qizlar tizimiga biriktirilgan **81 ta** og‘ir toifadagi mahallalarda alohida yo‘l xaritalari asosida ish tashkil etish;

2. **“Ye-ijtimoiy profilaktika”** axborot tizimida ro‘yxatga olingan **200 mingga yaqin** xotin-qizlar bilan manzilli ishlash;

3. Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanayotgan **67 ming nafar** xotin-qizlar va bolalar huquqlarini **himoya qilishga** qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;

4. **“Men kuchli ayolman!”** – jinoyat yoki huquqbuzarlik sodir etishga moyil, tazyiq va zo‘ravonlikdan, odam savdosidan jabrlangan, migratsiyadan ijtimoiy qiyin holatda qaytgan **49 920 nafar xotin-qizlar** bilan ishlash;

5. **“Mehr quyoshi!”** – jinoyat yoki huquqbuzarlik sodir etishga moyil, tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan, ota-onasi mehnat migratsiyasida bo‘lgan **16 640 nafar nazoratsiz voyaga yetmaganlarni** qo‘llab-quvvatlash;

6. **“Xavfsiz oila – barqaror hayot”** – xotin-qizlar orasida huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olishga qaratilgan **55 000 ta kompleks axborot-targ‘ibot** loyihasi;

7. **“Sharq ayoli ma’rifati”** – xotin-qizlar o’rtasida giyohvandlikka qarshi mafkuraviy immunitet hosil qilish, sog’lom turmush tarzini targ’ib qilishga qaratilgan **17 000 ta** targ’ibot tadbirlarini tashkil etish ko’zda tutilmoqda.

2026 yilda:

1. Oila va xotin-qizlar tizimiga birlashtirilgan **81 ta** og’ir toifadagi mahallalarda alohida yo’l xaritalari asosida ish tashkil etish;

2. **“Ye-ijtimoiy profilaktika”** axborot tizimida ro’yxatga olingan **200 mingga yaqin** xotin-qizlar bilan manzilli ishlash;

3. Tazyiq va zo’ravonlikdan jabrlanayotgan **67 ming nafar** xotin-qizlar va bolalar huquqlarini **himoya qilishga** qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;

4. **“Men kuchli ayolman!”** – jinoyat yoki huquqbuzarlik sodir etishga moyil, tazyiq va zo’ravonlikdan, odam savdosidan jabrlangan, migratsiyadan ijtimoiy qiyin holatda qaytgan **49 920 nafar xotin-qizlar** bilan ishlash;

5. **“Mehr quyoshi!”** – jinoyat yoki huquqbuzarlik sodir etishga moyil, tazyiq va zo’ravonlikdan jabrlangan, ota-onasi mehnat migratsiyasida bo’lgan **16 640 nafar nazoratsiz voyaga yetmaganlarni** qo’llab-quvvatlash;

6. **“Xavfsiz oila – barqaror hayot”** – xotin-qizlar orasida huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olishga qaratilgan **55 000 ta kompleks axborot-targ’ibot** loyihasi;

7. **“Sharq ayoli ma’rifati”** – xotin-qizlar o’rtasida giyohvandlikka qarshi mafkuraviy immunitet hosil qilish, sog’lom turmush tarzini targ’ib qilishga qaratilgan **17 000 ta** targ’ibot tadbirlarini tashkil etish ko’zda tutilmoqda.

V. Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish bo’yicha:

Davlatimiz Rahbarining ko’rsatmalari bilan ehtiyojmand oilalardagi xotin-qizlar uchun bakalavriatning **kunduzgi ta’lim shakli** bo’yicha **davlat granti** soni **2 mingtadan 4 mingtaga (2 baravar)**;

davlat organlari va tashkilotlarda mutaxassisligi bo’yicha kamida **besh yil mehnat staji** mavjud, biroq oliy ma’lumotga ega bo’lmagan xotin-qizlar uchun **to’lov-kontrakt asosida qabul kvotasi 500 tadan 2,5 mingtaga (5 baravar)** oshirildi.

Qo’mita tomonidan **“Tavsiyanoma.ijro.uz.”** elektron platformasi orqali **17 955 nafar** to’liqsiz, ehtiyojmand hamda mutaxassisligi bo’yicha kamida besh yil mehnat staji mavjud, biroq oliy ma’lumotga ega bo’lmagan xotin-qizlarga tavsiyanomalar berildi.

Ulardan **4 778 nafari**, shundan, **3 933 nafari** davlat granti asosida, **845 nafari** to’lov-kontrakt asosida talabalikka tavsiya etildi.

2025-2026-o’quv yilida jami **255 402 nafar** xotin-qizlar oliy ta’limga talabalikka qabul qilindi (**2025-yil** reja – **250 ming nafar**).

Milliy kadrlar zaxirasida xotin-qizlar salmog’i avvalgi yillarga nisbatan **2 barobarga** oshirilib, **32 foizga** yetdi.

Jamiyat va davlat hayotida faollik va tashabbuskorlik ko'rsatgan **334 nafar** ayollar **“Mo'tabar ayol”** ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

“Ayolga ehtirom haftaligi” doirasida **25 640 ta** ma'rifiy tadbirlar tashkil etildi. Bunda, **6 457 nafar** nuroniy onaxonlar (**100 yoshdan oshgan, mehnat fronti ishtirokchilari va faxriylar**) hamda **5 743 nafar** nogironligi bor, **10 916 nafar** boquvchisini yo'qotgan va og'ir turmush sharoitidagi xotin-qizlarning holidan xabar olindi.

Xotin-qizlar o'rtasida o'tkazilgan **“Zakovat”** intellektual o'yinlarida **700 ga** yaqin jamoalarda **4 000 nafardan ziyod** ayollar ishtiroki ta'minlandi.

28 nafar xotin-qizlar Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

2025 yilda Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga nomzodlarni saralash hududiy bosqichlarida **80 ming nafardan ziyod** iqtidorli qizlar jalb etildi. Respublika komissiyasi **370 nafar** nomzodlarning hujjatlarini ko'rib chiqib, belgilangan tartibda yuqori instansiyaga taqdim etildi.

Xotin-qizlarni oliy ta'limga jalb etish maqsadida **350 088 nafar** qizlar bilan so'rovnoma o'tkazildi. **Natijada 58 702 nafariga** moddiy, **19 407 nafariga** psixologik, **84 053 nafariga** huquqiy, **37 465 nafariga** ijtimoiy yordam ko'rsatildi.

Ijtimoiy sohalarga (*pedagogika, tibbiyot, madaniyat, sport, ijtimoiy fanlar va h.k.*) ixtisoslashgan **37 ta** davlat va xususiy oliy ta'lim muassasalarining **49 134 nafar** bitiruvchilarining bandligini ta'minlash maqsadida **Respublika darajasida** ishlarni muvofiqlashtirish yo'lga qo'yildi.

Ko'rilgan choralar **natijasida 34 449 nafar bitiruvchilarning** bandligini ta'minlash choralari ko'rildi.

O'zbekiston **zaminida yashab o'tgan mashhur va buyuk ayollar** hamda hozirgi kunda rahbarlik lavozimlarida ishlayotgan **19 nafar** ayollar haqidagi ma'lumotlar o'zbekcha **Vikipediya**ga joylashtirildi.

Xorazm viloyatida davlat va jamiyat rivojiga salmoqli hissa qo'shgan **Shakarjon Xo'janiyozovning 70 yillik yubileyi** keng nishonlandi. U asos solgan **badiiy gimnastika markaziga** va yashagan ko'chaga **Shakarjon Xo'janiyozova nomi** berish bo'yicha tashkiliy ishlar amalga oshirilmoqda. Viloyatdagi rahbar xotin-qizlar o'rtasida Shakarjon Xo'janiyozova nomida **“Rahbar ayollar”** tanlovi tashkil etildi va **3 nafar** g'oliblar taqdirlandi.

Vazirliklar, idoralar, korxona va tashkilotlar va ularning tizimlarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash bo'yicha **maslahat kengashlari** soni **155 tadan 13 584 mingga** yetkazildi va **87,6 baravarga** ortdi, xotin-qizlar masalalari bilan ishlovchi mas'ullar soni **13 ming nafardan** oshdi. Ular uchun **3 marotaba** o'quv seminar tashkil etildi.

Qashqadaryo tajribasi asosida **“Sogʻlom oila – sogʻlom jamoa uchun birlashaylik”** mavzusida maslahat kengashlari rahbarlari va aʼzolari uchun oʻtkazilgan seminar tavsiyalari asosida barcha hududlarda shu mavzudagi tadbirlar yuqori darajada tashkil etildi.

“Gender tenglik faoli” milliy tanlovi **3** bosqichda yuqori saviyada oʻtkazildi.

Qurolli Kuchlar safida xizmat qilayotgan xotin-qizlar oʻrtasida **“Vatan mehri yuragimda”** shiori ostida **“Toʻmaris izdoshlari”** respublika tanlovi oʻtkazildi.

11 oktyabr – Xalqaro qizlar kuni munosabati bilan qizlarni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha **2025-yilning 6-11-oktyabr** kunlari **“Dunyoni tinchlik va ezgulikka ilhomlantiramiz!”** shiori ostida maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlar haftaligi oʻtkazildi. Haftalik doirasida oʻtkazilgan tadbirlar ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda **1 260 marotaba** yoritildi.

10 193 ta taʼlim muassasalarida **“Qizlar oʻzgarishlar yetakchisi”** shiori ostida **“Qizlar-millat tayanchi”** mavzusida oʻtkazilgan maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlarda **1.2 mln nafar** oʻquvchi-qizlar qamrab olindi.

Oliy taʼlim muassasalarida **“Yangi Oʻzbekistonga – yangi maqsadlar va yangi gʻoyalar bilan”** shiori ostida oʻtkazilgan **25 ta** koʻrgazmalarda **150 dan** ortiq talaba qizlar oʻzlarining ixtiro, yangilik, kashfiyotlar, innovatsion texnologiyalar va ilmiy ishlanmalari bilaan ishtirok etishdi.

Hududlarda **“Rahbar ayollar bilan yosh xotin-qizlar uchun ochiq muloqot”** formatida **222 marotaba** davra suhbatlari tashkil etildi. Davra-suhbatlari **3 500 dan** ortiq yosh xotin-qizlar ishtirokida qizgʻin tarzda erkin savol-javoblar, muhokomalar tarzida oʻtkazildi.

“Rahbar ayollar” oʻquv kurslarida **100 nafar** faol xotin-qizlar oʻqitildi. **4 ta** mavsum natijalari boʻyicha **60 nafarga** yaqin xotin-qizlar yuqori rahbarlik lavozimlariga tayinlandi.

15 oktyabr – Xalqaro qishloq ayollari kuni munosabati bilan alohida **chora-tadbirlar dasturi asosida tadbirlar yuqori saviyada tashkil etildi.**

Toshkent davlat agrar universitetida **“Qishloq ayollari va innovatsiyalar: yangi imkoniyatlar sari”** soha yoʻnalishidagi olimalarning ilmiy-innovatsion yutuqlari koʻrgazmasi tashkil qilindi.

“Yil ayoli” milliy tanlovi oʻtkazilishi orqali **3 014 nafar** faol va tashabbuskor ayollar kashf etildi. Respublika bosqichida **samarqandlik “Anvarjon biznes invest” MCHJ rahbari Djumayeva Gulmira Tadjiyevna oliy oʻringa** sazovor boʻldi.

Samarqand shahrida YUNESKOning **43-sessiyasi** doirasida YUNESKO tashkiloti hamda Oila va xotin-qizlar qoʻmitasi hamkorligida **“Koʻp tomonlama hamkorlik orqali gender tengligini rivojlantirish”** mavzusida maxsus tadbir (sayd-ivent) oʻtkazildi.

Unda Qo'mita tashabbusi bilan uzoq va yaqin tarixda jamiyat rivojiga salmoqli hissa qo'shgan ayollar haqida chop etilgan **"Ayol. Tarix. Tamaddun"** kitob-albomini **taqdimoti** o'tkazildi.

"2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini **2025-yilda** amalga oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar" dasturi ijrosi yuzasidan keng qamrovli tahliliy ma'lumotlar tayyorlandi va taqdim etildi.

3 bosqichli "Gender tenglik faoli", "Yil ayoli" milliy tanlovlari o'tkazildi.

Qariyb 1 500 taga yaqin tashkilot vakillari;

3 000 nafardan ziyod xotin-qizlar ishtirok etdi.

Ijtimoiy sohalarga (*pedagogika, tibbiyot, madaniyat, sport, ijtimoiy fanlar va h.k.*) ixtisoslashgan **37 ta** davlat va xususiy oliy ta'lim muassasalari **bitiruvchilarning 45 016 nafarini** bandligini ta'minlash choralari ko'rildi.

"BMT-Ayollar" tuzilmasining O'zbekistondagi vakolatxonasi tomonidan ishlab chiqilgan **"O'zbekistonning gender tenglik bo'yicha mamlakat profili"** loyihasi hamda Osiyo taraqqiyot bankining mamlakatdagi vakolatxonasi tomonidan tayyorlangan **2019-2025-yillarda O'zbekistonda genderni baholash** bo'yicha **mamlakat hisoboti** loyihasi yuzasidan vazirlik va idoralar bilan muhokamalar o'tkazildi, taklif va tavsiyalar olindi. Natijasi bo'yicha **yakuniy xulosalar tayyorlanmoqda**.

Osiyo Taraqqiyot banki hamkorligida "Ish joyida genderni asoslangan zo'ravonlik: nazariya va amaliyot" **o'quv seminarlari**, Gender asosidagi zo'ravonlikka barham berish bo'yicha Markaziy Osiyo Alyansining yillik forumi, "Markaziy Osiyo va Ozarbayjonda barcha ayollar va qizlar uchun adolatga erishishni ta'minlash" mavzularida yuqori darajadagi **mintaqaviy maslahatlashuv forumlari** tashkil etildi.

2026 yilda:

Boshqaruv lavozimlaridagi xotin-qizlar ulushini **30,4 foizga**;

Davlat fuqarolik xizmatida xotin-qizlar ulushini **30 foizga**;

STEAM sohasida xotin-qizlar ulushini **42 foizga** yetkazish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

Iqtidorli xotin-qizlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash orqali ularning safini **115 000 nafarga** yetkazish;

100 ming nafar xotin-qizlarni **uzbekcoders.uz** platformasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan faol foydalanishga jalb etish;

11 fevral – "Ilm-fan sohasidagi ayollar va qizlar xalqaro kuni"ga bag'ishlab **"Ilm va ayol: barqaror jamiyat sari"** mavzusida haftalik o'tkazish;

to'liqsiz, ehtiyojmand oilalardan bo'lgan **4 000 nafar**, mutaxassisligi bo'yicha kamida **5 yil** mehnat stajiga ega, lekin oliy ma'lumoti bo'lmagan **2 500 nafar** xotin-

qizlarni oliy ta'lim olishi uchun yaratilgan imkoniyatlardan to'laonli foydalanishlarini ta'minlash yuzasidan tizimli ishlar olib boriladi;

mahallalarda, ta'lim muassasalarida, mehnat jamoalarida **"Qizlarjon", "Zulfiyaxonim izdoshlari"** klublari faoliyatini takomillashtirish;

oliy ta'lim, professional ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan xotin-qizlarning **ijtimoiy faolligini** oshirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshiriladi;

Jamiyatda xotin-qizlarning **intellektual, kasbiy va yetakchilik** salohiyatini rivojlantirish, **Istiqbolli xotin-qizlar zaxirasi** bilan ishlash tizimini takomillashtirish choralari ko'riladi.

VI. Xotin-qizlarning muammolarini o'rganish va "Ayollar daftari" orqali yordam ko'rsatish bo'yicha:

Bugungi kunda **9008 ta** mahallalarda **5 705 nafar** xotin-qizlar faollari faoliyat olib bormoqda.

Ular tomonidan **"Xonadonbay"** ishlash natijasida **1 808 250 ta** muammolar aniqlanib, **1 770 537 tasi** hal etilgan.

Jumladan:

Nizolashayotgan 184 758 ta oilalarning **163 205 tasi** murosaga keltirildi, **ishlash istagi bo'lgan 407 746 nafar** xotin-qizlardan **395 933 nafarining** bandligi ta'minlandi, **kasb-hunarga o'qish va o'rganish istagi bo'lgan 136 454 nafar** xotin-qizlarning **136 351 nafarini** kasb-hunarga o'qitishga ko'maklashildi.

Profilaktik hisobda turgan 24 037 nafar xotin-qizlarning **23 971 nafarining** muammosi hal etildi.

Xonadon gigiyenasi, sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yish bo'yicha **381 786 ta** muammoning **380 696 tasi** bartaraf etildi.

Mahalla xotin-qizlar faollarining ish uslubiga ko'maklashish, ularning bilim va malakalarini oshirish bo'yicha **5 ta** yo'nalishda **2 729 nafar** mahalla xotin-qizlar faollari uchun malaka oshirish o'quvlari tashkil etildi.

Bugungi kunda aholi va qishloq xo'jaligini **ro'yxatga olish jarayonida** faol ishtirok etmoqdalar.

Har bir oilaga yetib borish, muammolarni barvaqt aniqlash maqsadida mahallalarda **"Teng xizmat ko'rsatish" loyihasi 28 ta** tuman (shahar) da pilot loyiha sifatida joriy etildi. Loyiha doirasida **751 747 ta xonadonlar** xatlovdan o'tkazildi, jami **23 367 ta** muammolar aniqlanib, hal etish choralari ko'rib chiqilmoqda.

"Yagona integrator UZINFOSOM" hamkorligida axborot tizimi (**ayol.gov.uz**) platformasi ishlab chiqilib, hamkor tashkilotlarning axborot tizimiga real vaqt rejimida ariza berish imkoniyatini yaratish va to'liq integratsiya qilish inson omilisiz amalga oshirilishi bo'yicha mexanizm test rejimi asosida faoliyat yuritilishi yo'lga qo'yildi.

“Ayollar daftari”ga kiritilgan **1 022 476 nafar** xotin-qizlarning **1 020 981 nafariga (99,9%)** amaliy yordam ko’rsatildi.

Shundan, **634 639 nafar**ining bandligi ta’minlandi. **33 399 nafariga** tadbirkorlik faoliyatini yo’lga qo’yishi uchun **316,9 mlrd. so’m** imtiyozli kreditlar ajratildi.

3 975 nafar uy-joy ta’minotida amaliy yordam ko’rsatildi.

230 nafari uy-joy bilan ta’minlandi.

2 828 nafariga 5,1 mlrd. so’m miqdorida ijara kompensatsiyasi to’lab berildi.

1 833 nafar uy-joyi ta’miriga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlarning uy-joyi ta’mirlandi.

348 968 nafariga bir martalik moddiy yordam ko’rsatildi.

217 254 nafar xotin-qizlar va ularning **60 764 nafar** voyaga yetmagan farzandlari **tibbiy ko’rikdan** o’tkazildi hamda buning uchun jami **18,3 mlrd.** so’m mablag’ sarflandi;

149 898 nafarga huquqiy yordamlar ko’rsatildi, jumladan tug’ilganlik haqida guvohnoma yoki fuqarolik pasporti olish uchun **1,2 mlrd.** so’m to’lab berildi;

331 nafariga dehqonchilik bilan shug’ullanish uchun jami **46 gektar** yer maydoni ajratildi;

70 nafar oliy o’quv yurtida tahsil olayotgan xotin-qizlar hamda farzandlariga **kontrakt to’lovining bir qismi** (jami **293,2 mln** so’m) to’lab berildi.

Toshkent viloyatidagi **sihatgohlarda 33 075 nafar** xotin-qizlari sog’lomlashtirilishi barobarida, tadbirkorlik faoliyatini boshlashi uchun motivatsion seminarlar tashkil etildi.

Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan hamkorlikda ijtimoiy qo’llab-quvvatlanayotgan xotin-qizlarning raqamli savodxonligini oshirish, ularni sun’iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanishga keng jalb etishga qaratilgan **“Raqamli ayol – yangi imkoniyatlar davri”** Forumi tashkil etildi. Qo’shma loyihalarni amalga oshirish bo’yicha **Memorandum** imzolandi.

“GAP” ayollar IT klubi loyihasi doirasida **“Ayollar daftari”** hamda **“Kambag’al oilalar reestri”** ga kiritilgan va boshqa xotin-qizlarni raqamli savodxonligini oshirish, sun’iy intellekt va AT sohasidagi boshqa yo’nalishlarda malakasini oshirish bo’yicha **28 ta video darsliklar** ishlab chiqildi va o’quv mashg’ulotlari o’tkazildi.

2026 yilda:

Xotin-qizlarning bandligini ta’minlash, **“Eng yaxshi ijtimoiy loyihalar”** tanlovini o’tkazish;

har bir mahallada xotin-qizlar uchun huquqiy, iqtisodiy, tibbiy, psixologik bilim, tavsiya berish, innovatsion loyihalar bilan tanishish imkonini yaratuvchi **innovatsion burchaklar** tashkil etish.

940 ming nafar ehtiyojmand xotin-qizlarni “Ayollar daftari” tizimi orqali ko‘makka muxtoj xotin-qizlarni manzilli qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshirish.

Bunda:

5 000 nafar ehtiyojmand xotin-qizlarning uy-joylarini ta‘mirlash;

135 ming nafar ayollarni jarrohlik amaliyotisiz davolash va jarrohlik amaliyoti xarajatlarini qoplash;

Malakali psixologlar tomonidan **40 ming nafar** xotin-qizlarning ruhiy holatini yaxshilash

2 000 nafar ehtiyojmand ayollar yoki ularning farzandlaridan birining kontrakt to‘lovini to‘lab berig

2 000 nafar xotin-qizlarning ijara kompensatsiyalarini to‘lab berish.

70 nafar nogironligi bo‘lgan shaxs yoki nogiron a‘zosi bo‘lgan oilaning onlayn auksion orqali yer uchastkasini sotib olishga ko‘maklashish.

100 ming nafar xotin-qizlar uchun madaniy-ma‘rifiy, sport va boshqa tadbirlarni tashkil etish

50 ming nafar xotin-qizlar uchun Toshkent viloyatidagi sihatgohlarda psixologik yordam ko‘rsatish va tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha motivatsion seminarlar tashkil etish.

VII. Ijtimoiy ma‘naviy-muhitni sog‘lomlashtirish bo‘yicha:

Qo‘mita qoshida **“Ayol ma‘rifati”** ilmiy-ijodiy jamoatchilik kengashi va uning vertikal tuzilmasi yaratildi. Uning tarkibiga **1000 ga** yaqin olima va ijodkor ayollar jalb etilib, Kengash tomonidan **3 ta** yirik loyihalar amalga oshirildi.

Xonadonbay yurish ishlari davomida turli yot g‘oyalarga moyilligi bor xotin-qizlar aniqlanib, belgilangan tartibda mas‘ullarga yetkazib borildi.

To‘y, ma‘raka va boshqa oilaviy marosimlarni kamxarj va kamchiqim o‘tkazish maqsadida hamkor vazirlik va idoralar bilan **“Maromiylik”** dasturi joriy qilindi. Qo‘mita tomonidan **oqilona iste‘mol** me‘yorlariga rioya qilinishi borasida targ‘ibot ishlari olib borildi.

Milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish maqsadida haftaning juma kuni **“Milliy liboslar kuni”** deb e‘lon qilinib, **204 mingdan ortiq** ma‘rifiy tadbirlar, chellenjlar tashkil etildi.

Sentyabr oyida o'tkazilgan **"Xon atlas"** festivalida respublikaning barcha hududlarida, mehnat jamoalarida, ta'lim muassasalarida **8,5 mln. nafardan** ortiq xotin-qizlar jalb etildi.

Har oyning 17 sanasida an'anaviy **"Kitobxon onalar"** tadbirlari tashkil etilishi natijasida **10 000 nafardan** ortiq kitobxon onalar kashf etildi va **800 dan ortiq** kitoblar taqdimot qilindi.

Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mitasi hamkorligida turli millatlar vakillari ishtirokida **"Xalqlar onalari mushtarakligi: Alla festivali"** o'tkazildi. Uning an'anaviyligini ta'minlash rejasi belgilandi.

"Yoshlar ijod saroyi"da O'zbekiston Oila va xotin-qizlar qo'mitasi muassisligidagi "Saodat" jurnalining 100-yillik yubileyi tantanali o'tkazildi.

O'zbekiston telekanalining **"Yechimi bor"** ko'rsatuvi jamoasi bilan hamkorlikda **40 dan ortiq** maxsus son tayyorlandi. Ko'rsatuvlarga **1 200 dan ortiq** ekspertlar va mahallalardan vakillar jalb etildi.

Olmazor tumanida **"Ma'rifatli ayol"** loyihasi amalga oshirildi. Respublika **"Oqila ayollar"** harakati **a'zolarining hisobot yig'ilishlari**, oila mustahkamligini ta'minlashdagi roli yuzasidan har bir mahallada, tuman, shahar, hudud va Respublika darajasida **Forumlar** tashkil etildi. Faol va tashabbuskor **468 nafar** a'zolari rag'batlantirildi.

2026 yilda:

mas'ul vazirlik va idoralar bilan **hamkorlik chora-tadbirlar** dasturini ishlab chiqish;

"Ma'rifatli ayol" loyihasi doirasida mahallalarda yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish, mutaassiblikning oldini olish bo'yicha manzilli ishlarni amalga oshirish.

tabiiy resurslardan unumli foydalanish madaniyatini shakllantirish hamda uni kundalik hayot me'yoriga aylantirish, to'y va boshqa oilaviy marosimlarni o'tkazishda isrofgarchilikni oldini olishga qaratilgan **"Oqilona iste'mol" ("Save food")** dasturini amaliyotga joriy qilish;

"Kitobxon onalar" loyihalarni amalga oshirish orqali kitobxon oilalar sonini **10 mingtaga** ko'paytirishga erishish.

Milliy liboslar tanlovlarini o'tkazish bo'yicha kompleks dasturlarni amalga oshirish.

VIII. Xalqaro hamkorlik bo'yicha:

Yil davomida **27 ta** Xalqaro tashkilotlar bilan uchrashuvlar tashkil etildi.

Koreyaning EXIM BANKI hamkorligida Qoraqalpog'iston Respublikasida ayollarni tadbirkorlikka o'rgatish va o'rganilgan ko'nikmalarni amaliyotda sinash markazini ishga tushirish uchun qiymati **38 mln. dollar** bo'lgan loyiha Investitsiyalar,

sanoat va savdo vazirligi tomonidan **2026 yilda** amalga oshiriladigan istiqbolli loyihalar ro'yxatiga kiritildi.

Jahon banki va Yaponiya ijtimoiy rivojlanish jamg'armasining grant mablag'lari ishtirokidagi "Qishloq ayollari iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish" loyihasi doirasida **jami 180 ta "Ayollar farovonligini oshirish guruhlarini" tashkil etildi.** Dastur doirasida **1 000 dan ziyod** xotin-qizlar qamrab olindi.

800 ga yaqin xotin-qizlar **tadbirkorlik faoliyatlarini boshladi.** **175 ta ayollar ishtirokidagi kichik korxonalar tashkil etildi.** Ushbu korxonalarga jami **1,4 mln AQSH dollari miqdoridagi** mablag'lar taqdim etildi.

Rossiya, Koreya, Germaniya, BAA, Hindiston, Saudiya Arabistoni podshohligi, Qozog'iston, Amerika Qo'shma Shtatlari, Latviya davlatlari bilan **onlayn**, Koreya, Turkiya (**2 marotaba**), Rossiya Federatsiyasi davlatlari bilan **oflayn** sayyor qabullar tashkil etildi. Natijada **4 000 nafardan ortiq** og'ir ijtimoiy vaziyatda qolgan ayollarga amaliy yordam berilib, **120 nafari** Vatanga qaytarilishiga ko'maklashildi.

O'zbekiston fuqarolari ko'p bo'lgan Seul shahrida **"Opa-singillar" jamoat tashkiloti** kengashi tashkil etildi.

Ikkinchi O'zbekiston-Xitoy hududlararo forumi doirasida **"O'zbekiston-Xitoy innovatsiya hamda tadbirkorlik bo'yicha hamkorlik"** xalqaro ayollar forumi o'tkazildi. Unda Xitoy Tadbirkor ayollar uyushmasi, Shensi, Sinxay provinsiyalari Ayollar uyushmasi rahbarlari, **50 ga yaqin** xitoylik tadbirkor ayollar ishtirok etdi. Forum yakuniga ko'ra **42 ta** shartnomalar imzolandi.

BMTning Aholishunoslik jamg'armasi hamkorligida oilalarda, xotin-qizlar o'rtasida ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish masalalarida Toshkent shahri va Toshkent viloyati xotin-qizlar faollari va Targ'ibot guruhining **1000 nafar** a'zolari uchun o'quvlar tashkil etildi.

BMT Taraqqiyot dasturining "Markaziy Osiyoda zo'ravon ekstremizmning oldini olish maqsadida barqaror jamoalarni qo'llab-quvvatlash" loyihasi doirasida **Andijon, Namangan, Farg'ona, Surxondaryo** viloyatlarida **200 nafar** mahalla xotin-qizlar faollari uchun hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Aholishunoslik jamg'armasi (YUNFPA) tomonidan "Zo'ravonlik sodir etgan yoki unga moyil shaxsning zo'ravon xulq-atvorini o'zgartirish bo'yicha korreksion dasturini amalga oshirish metodikasi" yo'nalishida **Toshkent, Qashqadaryo viloyatlari va Toshkent shahridagi 200 nafar** mahalla xotin-qizlar faollari uchun o'quvlar tashkil etildi.

Osiyo Taraqqiyot Banki hamkorligida "Migratsiyadan qaytgan xotin-qizlarning iqtisodiy reintegratsiyasini ta'minlash va ularni mamlakatimizdagi turizm sohasiga samarali jalb qilish", "Ish joyida genderni asoslangan zo'ravonlik: nazariya va amaliyot" **o'quv seminarlari**, Gender asosidagi zo'ravonlikka barham berish bo'yicha Markaziy Osiyo Alyansining yillik forumi, "Markaziy Osiyo va Ozarbayjonda barcha ayollar va qizlar uchun adolatga erishishni ta'minlash" mavzularida yuqori darajadagi **mintaqaviy maslahatlashuv forumlari** tashkil etildi.

2026 yilda:

“Yangi O‘zbekistonda oila mustahkamligi” S5+1 (Markaziy Osiyo +Azarbayjan tajribasi) forumini o‘tkazish.

Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda **“Raqamli avlod ayollari”** loyihalar tanlovini tashkil etish.

Oila, xotin-qizlar hamda bolalarni qo‘llab-quvvatlash sohasida samarali faoliyat olib borgan **“Eng yaxshi xalqaro hamkor tashkilot”** milliy tanlovini o‘tkazish.

“Osiyo ishbilarmon ayollar forumi”ni o‘tkazish.

Xotin-qizlar **yetakchiligi bo‘yicha akademiya** joriy qilish.

Qishloq xotin-qizlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan xalqaro loyihalarni amalga oshirish.

IX. Yagona axborot tizimini ishlab chiqish bo‘yicha.

Qo‘mitaning Yagona axborot tizimi takomillashtirildi:

Qo‘mita tuzilmasida 3 shtat birligidan iborat **“Axborot texnologiyalari, raqamlashtirish va sun‘iy intellekt rivojlantirish bo‘limi”** tashkil etildi.

2. Sohaga doir ko‘rsatkichlarning yagona platformasini yaratish maqsadida **ayol.gov.uz** yagona avtomatlashtirilgan elektron axborot tizimi ishlab chiqildi (*“Uzinfocom” MCHJ bilan hamkorlikda*).

3. Mazkur platforma **9 dan** ortiq davlat idoralarining (*Adliya, Sog‘liqni saqlash, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik, Ichki ishlar va boshqa*) axborot tizimlarida mavjud **20 dan** ziyod modullar bilan o‘zaro integratsiya qilindi.

Xotin-qizlarning turar joy manzili, oilaviy holati, migratsiya, ajrim, nikoh, himoya orderi, uy-joy va mol-mulki, nogironlik, salomatlik, bandlik holati, oliy ma‘lumot to‘g‘risidagi va boshqa ma‘lumotlarni olish imkoniyati yaratildi.

4. Vazirlik va idoralar axborot platformalarida mavjud xotin-qizlarga oid ko‘rsatkichlar texnik xatlovdan o‘tkazildi hamda **85 ta** asosiy ko‘rsatkichlar aniqlandi.

5. Mahalla faollari uchun **“Teng xizmat ko‘rsatish”** dasturi ishlab chiqilib, xotin-qizlarning muammolarini aniqlash va ularni **“mahalla — tuman — viloyat — respublika”** darajasida tizimli hal etish mexanizmi yo‘lga qo‘yildi.

Bunda aholi bilan **22 turdagi** xizmatlar, xususan, bandlik, tadbirkorlik, oilaviy munosabatlar, jinoyatchilik va noqonuniy migratsiyaning oldini olish kabi xizmatlar qamrab olindi.

6. Mehnat migratsiyasida bo‘lgan ayollar, shuningdek xorijga chiqish istagidagi xotin-qizlar bilan **muloqot tizimi** yaratilib, doimiy monitoringi joriy etildi.

Yuqoridagi chora-tadbirlarni yanada takomillashtirish maqsadida 2026-yilda:

1. **100 ming** nafar xotin-qizlar IT sohasiga o'qitilib, raqamli ko'nikmalari oshiriladi hamda zamonaviy kasblarga yo'naltirish orqali mehnat bozorida raqobatbardoshligi ta'minlanadi.

2. Qiz bolalikdan keksalikkacha bo'lgan davrda ta'lim, bandlik, salomatlik, ijtimoiy himoya va huquqiy xizmatlarni yagona raqamli trayektoriya orqali muvofiqlashtirish mexanizmi loyihasi tayyorlanadi.

3. Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan ko'rsatiladigan **9 ta** davlat xizmati **Yagona interaktiv davlat xizmatlari** portaliga integratsiya qilinadi.

To'liqsiz, ehtiyojmand oilalardan bo'lgan, mutaxassisligi bo'yicha kamida 5 yil mehnat staji bor, lekin oliy ma'lumoti bo'lmagan hamda hududiy hokimliklar tomonidan xotin-qizlarni oliy ta'lim muassasalariga tavsiya berish, "Ibratli oila", "Yil ayoli" tanlovlari, "Zulfiya" nomidagi davlat mukofotiga onlayn ariza yuborish, "Ayollar daftari"ga kirish, "Daromadli ayol" kooperatsiyalar dasturi, mehnat migratsiyasidagi ayollarga huquqiy yordam ko'rsatish kabi xizmat turlari integratsiya qilinadi

4. Xotin-qizlarning **murojaatlari** bilan ishlash tizimi takomillashtirilib, ijtimoiy **messenjerlar** bilan o'zaro bog'lanadi.

5. **85** ta asosiy ko'rsatkich bo'yicha **respublika, viloyat, tuman va mahalla** kesimida real vaqt rejimida vizual analitik panellar ("vaziyat markazlari") ishlab chiqiladi.

6. Xotin-qizlar muammolarini erta aniqlash, xavf guruhlarini prognoz qilish va mas'ul idoralarga avtomatik tavsiyalar shakllantirish uchun **AI-modul** ishlab chiqiladi.

7. Xorijdagi xotin-qizlar uchun huquqiy, psixologik va ijtimoiy maslahatlarni taqdim etuvchi **24/7 onlayn servislarni** yo'lga qo'yiladi.

8. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha xalqaro standartlarga muvofiq shifrlash, kirish huquqlarini boshqarish va kiberxavfsizlik auditlari muntazam o'tkazib boriladi.

9. Qo'mita va hududiy bo'linmalar xodimlari uchun raqamli texnologiyalar, ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellekt bilan ishlash bo'yicha doimiy o'quv kurslari tashkil etiladi.

X. Media makonida xotin-qizlarga oid islohotlar va dasturlarning ijobiy natijalarini keng yoritish:

AOKA va Milliy teleradiokompaniyasi bilan **4 ta** qo'shma reja imzolanib, ijrosi ta'minlandi.

13 ta brifing va **2 ta** matbuot anjumani o'tkazildi.

OAV va ijtimoiy tarmoqlarda:

- bosma OAV (gazeta-jurnal)larda **5 805 ta** bosma material;

- TV va radioda **5 075 ta** ko'rsatuv va eshittirish;
- internet sahifalari hamda ijtimoiy tarmoq kanallarida **39 860 ga** yaqin materiallar e'lon qilindi.

“O‘zbekiston” telekanali bilan hamkorlikda **“Oila olami”** ko'rsatuvi tashkil qilinib, haftaning har shanba kunlari to'g'ridan to'g'ri efirga uzatilib, **36 ta** ko'rsatuv efirga uzatildi.

6 ta turli dolzarb mavzudagi haftaliklarga barcha davlat va nodavlat OAVlar hamda radiolarda **66 ta** teleradio dasturlar targ'ibot materiallari va spikerlar bilan ta'minlandi.

Turli muhim mavzularda **“Studiya -24”** da **22 ta** turli tok-shou va suhbatlar tashkil qilindi. **“Munosabat”** ko'rsatuvining **8 ta** maxsus soni tayyorlandi.

Xorijiy OAVlarda **14 ta** material elon qilindi.

Qo'mita raisining **“Yangi O‘zbekiston”**, **“Xalq so‘zi”**, **“O‘zbekiston ovozi”**, **“Ishonch”** gazetalarida **18 ta** tahliliy maqolalari, Amerikaning **“Diplomatic Watch Magazine”** nashrida maqolasi e'lon qilindi.

Qo'mita faoliyati targ'ibotiga oid radioda **31 ta** material tayyorlandi.

2026 yilda:

Oila va xotin-qizlarga oid islohotlar, amalga oshirilayotgan ishlar, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilinishiga xissa qo'shgan bloger va jurnalistlar o'rtasida **“Eng yaxshi OAV xodimi”** milliy tanlovini o'tkazish;

Yangi O‘zbekiston ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hayotida ayollarning o‘rnini keng targ‘ib etishga qaratilgan 11 ta medialoyihalarni tashkil qilish;

Xususiy va xorijiy ommaviy **axborot vositalari** (ijtimoiy tarmoq, telekanallar, bloger va jurnalistlar) bilan hamkorlikni kengaytirish.

Qo'mita tomonidan kelgusi yilda ishlarni tizimli tashkil etish maqsadida **11 ta** ustuvor yo'nalishlarni belgilagan **“2026 yilda oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash sohasida belgilangan ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish bo'yicha yo'l xaritasi”** loyihasi respublika va har bir hudud darajasida ishlab chiqildi. Har bir bandining to'liq hajmda ijrosi ta'minlanadi.

Ma'lumot uchun kiritilmoqda.